



**Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna,**  
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i,  
katta ilmiy xodim

# XALQARO HUJJATLARDA TALABALAR TURAR JOYLARIDAGI QIZLARNI QO'LLAB- QUVVATLASHGA OID NORMALAR TAHLILI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro huquqiy hujjatlarda talabalar turar joylarida istiqomat qiluvchi qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularga qulay va xavfsiz shart-sharoitlar yaratish, ta'lif olishga to'sqinlik qilmaslik, zo'ravonlik va kamsitishdan himoyalash borasidagi normalar tahlil qilingan. BMT, YuNESKO, YeXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar tavsiyalari asosida amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, turli davlatlarning amaliyotida talabalar, ayniqsa, qizlar uchun turar joylarda ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashning xalqaro standartlarga mos mexanizmlari tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** talabalar turar joyi, qizlar huquqi, xalqaro hujjatlari, xavfsizlik, zo'ravonlik, himoya, kamsitish, ta'lif huquqi, tenglik, gender.

**Аннотация.** В статье анализируются нормы международных правовых документов, касающиеся защиты прав девушек, проживающих в студенческих общежитиях. Рассмотрены положения о создании безопасных и благоприятных условий проживания, недопущении насилия, дискриминации и препятствий в получении образования. Исследованы рекомендации ООН, ЮНЕСКО, ОБСЕ и других международных организаций, а также механизмы поддержки студенток, реализуемые в различных странах в соответствии с международными стандартами.

**Ключевые слова:** студенческие общежития, права девушек, международные документы, безопасность, защита, насилие, дискриминация, право на образование, равенство, гендер.

**Annotation.** This article analyzes international legal norms related to the protection of the rights of female students living in dormitories. It examines provisions on ensuring safe and supportive living conditions, preventing violence and discrimination, and safeguarding access to education. The study reviews recommendations from the UN, UNESCO, OSCE, and other international organizations, as well as mechanisms implemented in various countries to support female students in line with international standards.

**Keywords:** student dormitories, girls' rights, international documents, safety, protection, violence, discrimination, right to education, equality, gender.

**Kirish.** Jahon miqyosida xotin-qizlarning ta'lilda teng imkoniyatlarini ta'minlash masalasi ustuvor global muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan qizlar uchun turar joylarda

yaratilgan shart-sharoitlar, ularning xavfsizligi, ma'naviy va psixologik qo'llab-quvvatlanishi, zo'ravonlik va kamsitishdan himoyalanishi nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham huquqiy kafolatlar orqali mustahkamlanmoqda. BMTning Inson

huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW), YuNESKOning ta‘limga oid dasturlari hamda YeXHT va Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlar talabalar, xususan, qizlar uchun barqaror va xavfsiz yashash muhitini ta‘minlashga qaratilgan. Bu hujjatlarda talabalar turar joylaridagi qizlarga nisbatan teng munosabat, imkoniyatlar yaratish, ularning shaxsiy daxlsizligi va ta‘lim olish huquqini ta‘minlashga oid aniq normalar mayjud.

Hozirgi globallashuv sharoitida talabalar turar joylarida istiqomat qiluvchi qizlarning huquqlarini himoya qilish, ular uchun xavfsiz, qulay va teng imkoniyatli muhit yaratish dolzarb masalaga aylanmoqda. Yotoqxonalarda zo‘ravonlik, kamsitish, psixologik bosim va shart-sharoitlarning yetarli emasligi ko‘plab qizlarning ta‘lim sifatiga, ruhiy holatiga va ijtimoiy faolligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, xalqaro hujjatlardagi talablarni milliy amaliyotga tatbiq etish va talabalar yotoqxonalarida qizlar uchun adolatli, xavfsiz va ma‘naviy muhitni kafolatlovchi mexanizmlarni takomillashtirish bugungi kunda jamiyat rivoji uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**Maqsad va uni asoslash.** Ushbu maqolaning maqsadi xalqaro huquqiy hujjatlarda talabalar turar joylarida istiqomat qiluvchi qizlarni qo‘llab-quvvatlashga oid normalarni tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish va bu normalarni O‘zbekiston milliy amaliyotiga mos holda tatbiq etish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Quyidagi omillar maqolaning maqsadini yanada asoslab beradi:

– birinchidan, xalqaro hujjatlarda ta‘limda gender tengligi, xavfsizlik va shaxsiy daxlsizlikka oid qator normalar mavjud bo‘lsa-da, ularni amalda tatbiq etish darajasi turli davlatlarda farq qiladi.

– ikkinchidan, talabalar turar joylarida istiqomat qiluvchi qizlar nafaqat ta‘lim, balki ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik jihatdan ham himoyaga muhtoj qatlam sifatida qaralishi lozim;

– uchinchidan, O‘zbekistonda talabalar yotoqxonalaridagi muhitni xalqaro standartlarga moslashtirish, ayniqsa, qizlar uchun xavfsiz, ma‘naviy va huquqiy jihatdan qulay sharoitlarni yaratish – ta‘lim tizimida sifat va barqarorlikni ta‘minlashning muhim shartlaridan biri.

Shu bois, maqolada xalqaro huquqiy normalar tahlil qilinib, ularning milliy amaliyotda tatbiq etilishi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**  
Xalqaro hujjatlarda talabalar turar joylarida

qizlarni qo‘llab-quvvatlash deb nomlangan maxsus normalarni uchratish qiyin, ular ayollarning ta‘lim olish, xavfsiz va munosib sharoitda yashash, kamsitishsiz muhitni ta‘minlash, sha’n va shaxsiy daxlsizlikni tan olish hamda reproduktiv salomatlik huquqlarini kafolatlash masalalarida umumiyligi universal normalar ko‘rinishida shakllangan. Xalqaro qonunchilikda yotoqxonalar bilan bog‘liq maxsus normalarning kamligi bir qancha omillar bilan bog‘liq:

– birinchidan, yotoqxona – milliy infratuzilma: qurilish va sanitariya standartlari, odatda, mahalliy qonunlar bilan tartibga solinadi;

– ikkinchidan, umumiyligi inson huquqlari yetarli baza: uyjoy hamda ta‘lim xavfsizligi bo‘yicha umumiyligi normalar talaba yotoqxonalariga ham tatbiq etiladi.

Quyida xalqaro hujjatlarda xotin-qizlarning ta‘lim va shaxsiy daxlsizligi bilan bog‘liq umumiyligi normalarni tahlil qilamiz:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida ta‘lim inson sha’ni va huquqlariga hurmatni mustahkamlashga xizmat qilishi lozimligi qayd etilgan<sup>1</sup>. BMTning Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya (CEDAW) esa ijtimoiy-madaniy stereotiplarni yo‘q qilish chorasini ko‘rishga undaydi. Jumladan, mazkur Konvensiyaning 10-moddasi ta‘lim sohasida ayollarga erkaklar bilan teng huquqlar berilishini talab qilsa, uning doirasida gender asosidagi rol stereotiplarini yo‘q qilish choralarini ham ko‘zda tutadi<sup>2</sup>.

Xalqaro normalar davlatlarni o‘quv dasturlaridan ayollarning kamsitilgan yoki past ko‘rsatilishiga olib keladigan mazmunni chiqarib tashlashga chaqiradi. Masalan, CEDAW 5-moddasi jamiyatda an‘anaviy “erkak-ayol rollari”ga oid zararli qarashlarni o‘zgartirish majburiyatini yuklaydi. UNESCO ham ta‘lim tizimida gender tenglik madaniyatini shakllantirish, o‘g‘il va qizlarning o‘zaro hurmat ruhida tarbiya topishi tarafdoi. Xususan, CEDAWning 10-moddasi barcha bosqichlarda – muktabdan tortib oliy ta‘limgacha – teng imkoniyat va stereotiplardan xoli ta‘lim muhitini ta‘minlashga da’vat etadi<sup>3</sup>. Bu normalar talabalar turar joylaridagi axloqiy muhit

<sup>1</sup> Инсон хукуклари умумжоҳон декларацияси // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>

<sup>2</sup> Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women // <https://www.right-to-education.org/resource/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women>

<sup>3</sup> Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida Konvensiya // <https://lex.uz/ru/docs/2685528>

ham sog‘lom bo‘lishini, ya’ni qizlarga nisbatan hummatsizlik, jinsiy tajovuz yoki kamsituvchi muomala bo‘lmasligini anglatadi.

Xavfsiz muhit – ta’limdagi eng muhim xalqaro standartlardan biri. Har bir inson, jumladan, talaba qizlar ham shaxsiy daxlsizlik va xavfsizlik huquqiga ega (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 3-modda). BMT va UNESCO hujjatlarida ta’lim muassasalari hamda ularning yotoqxonalari zo‘ravonlik va tazyiqlardan xoli hudud bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. Masalan, UNESCO tomonidan olib borilgan taddiqotlar har yili dunyoda 60 millionga yaqin qiz mакtab yo‘lida yoki maktabda jinsiy zo‘ravonlikka uchrashi mumkinligini ko‘rsatdi<sup>4</sup>. Bu xalqaro hamjamiyat uchun ogohlantiruvchi raqam bo‘lib, barcha davlatni ta’lim muassasalari atrofida va ichida qizlar uchun xavfsiz muhit yaratishga chorladi.

“Maktablar va uning atrofida zo‘ravonlikning oldini olish” bo‘yicha UNESCO dasturlari va Safe to Learn kabi xalqaro tashabbuslar aynan o‘quvchi va talaba qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishga yo‘naltirilgan<sup>5</sup>. BMT Bosh Assambleyasining 1993-yildagi “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish to‘g‘risidagi deklaratsiyasi” ham ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilish davlat zimmasida ekanini e’lon qilgan. CEDAW Qo‘mitasining 19-sonli Umumiy tavsiyasida ham ta’kidlanishicha, gender asosidagi zo‘ravonlik ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning bir shaklidir va undan himoyalanish ayollarining fundamental huquqlaridan biridir. Shu bois, xalqaro me’yorlar davlatlardan ta’lim maskanlarida, jumladan talabalar turar joylarida, jinsiy tazyiq va har qanday zo‘ravonlikning oldini olish, tezkor javob berish va jabrlanuvchilarни muhofaza qilish choralarini kuchaytirishni talab qiladi<sup>6</sup>. Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 3-moddasida har bir inson hayot, erkinlik va shaxsiy xavfsizlik huquqiga ega ekani mustahkamlab qo‘ylgan bo‘lib, bu norma talabalar yashash joylarida ham jismoniy va ruhiy daxlsizlikni ta’minalash zarurligini anglatadi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt va Bola huquqlari

<sup>4</sup> What is school violence? // <https://www.unesco.org/en/health-education/safe-learning-environments>

<sup>5</sup> Why does gender matter when looking at school violence? // <https://www.unesco.org/en/health-education/safe-learning-environments>

<sup>6</sup> Общая рекомендация №19 насилие в отношении женщин // [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/cedaw\\_handbook/cedaw\\_rec19.pdf](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw_handbook/cedaw_rec19.pdf)

to‘g‘risidagi Konvensiya ham ta’lim sohasida kamsitishsiz tenglikni talab qiladi. UNESCOning 1960-yilgi Ta’limda kamsitishning oldini olish to‘g‘risidagi Konvensiyasi ham ta’lim olishda jins, irq, til va boshqalarga ko‘ra diskriminatsiyani taqiqlaydi va barcha uchun teng ta’lim imkoniyatlarini mustahkamlaydi. Xalqaro darajada qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining 4-maqsadi (Sifatli ta’lim) va 5-maqsadi (Gender tenglik) ham ta’limda gender tengligini ta’minalash hamda qizlarning oliy ta’limga to‘liq jalb etilishini nazarda tutadi<sup>7</sup>. Demak, xalqaro huquq qoidalari talaba qizlarning erkak talabalar bilan teng ravishda sifatli oliy ta’lim olishini va bunda ularga qandaydir past nazar bilan qaramaslikni talab qiladi.

Talabalar turar joyida yashovchi qizlar ham shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqiga ega bo‘lishlari lozim. Xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi, hech kimning shaxsiy hayoti, oilasi, uy-joyi yoki yozishmalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishga yo‘l qo‘ylmasligini kafolatlaydi<sup>8</sup>. Bu norma yosh ayol-talabalarning yotoqxonalardagi shaxsiy xonalarida yoki hayotida ham hurmat bilan munosabatda bo‘lishni talab etadi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt<sup>9</sup>ning 17-moddasi ham shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qiladi. Talabalar turar joylarida qoidalari tartib-intizomni saqlash uchun mavjud bo‘lsa-da, xalqaro me’yorlar bu qoidalari talabalarning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash yoki haddan tashqari nazoratga olib kelmasligi kerakligini uqtiradi, ya’ni, tekshiruvlar, rejim talabalarini o‘rnatishda insonning xususiyati hurmat qilinishi shart. Bundan tashqari, talaba qizlar uchun muhim bo‘lgan shaxsiy makon va vaqtga ega bo‘lish (masalan, dars tayyorlash, dam olish paytida) huquqi ham xalqaro standartlar ruhidha tushuniladi. Xalqaro normalar davlatlarni qizlarning xonalariga ruxsatsiz bostirib kirish, ularning shaxsiy buyumlarini tekshirish kabi xatti-harakatlardan tiyilishga chaqiradi – faqat qonuniy asos va zarurat bo‘lgandagina bunday cheklovлага yo‘l qo‘yilishi mumkin (masalan, hayotiy xavf mavjud bo‘lsa va hokazo).

BMT Bolalar huquqlari konvensiyasi 16-moddasi ham bolalar va voyaga yetmaganlarning shaxsiy hayotiga aralashmaslikni kafolatlashi

<sup>7</sup> THE 17 GOALS // <https://sdgs.un.org/goals>

<sup>8</sup> Инсон хукуклари умумжоҳон декларацияси // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>

<sup>9</sup> Фуқаровий ва сиёсий хукуклар тўғрисида халқаро Пакт // <https://lex.uz/docs/2640479>

oliy ta'lilda qatnashayotgan yoshlar uchun ham ma'lum darajada qo'llaniladi<sup>10</sup>. Shu tariqa, xalqaro normalardan talaba qizlarning yotoqxonadagi shaxsiy hayoti hurmat qilinishi, ularning roziligidisiz shaxsiy ma'lumotlari oshkor qilinmasligi (masalan, sog'liq yoki reproduktiv holati haqida) va sha'ni toptalmagan holda muomala qilinishi zarurligini belgilab beradi.

Kamsitmaslik – barcha xalqaro inson huquqlari hujjatlarining bosh tamoyillaridan biri. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 2-moddasiga asosan, har bir inson irqi, jinsi va boshqa belgilardan qat'i nazar barcha huquq va erkinliklardan foydalanishga haqlidi<sup>11</sup>.

Ta'lim sohasida diskriminatsiyaga yo'q ymaslik haqida 1960-yilgi UNESCO Konvensiyasi maxsus bitim bo'lib, unda ta'lilda irqiy, etnik yoki jinsiy ajratish mutlaqo man etilishi belgilangan. Demak, xalqaro me'yorlar talabalar turar joylarida qizlarga nisbatan hech qanday kamsitish, masalan, faqat qizlar uchun qo'shimcha cheklovlar qo'yish, ularning faolligini kamaytirish yoki imkoniyatlarini toraytirish bo'lmasligini talab qiladi. Aksincha, zarur hollarda ijobjiy diskriminatsiya orqali qizlarni qo'llab-quvvatlash rag'batlanriladi. Masalan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida 2030-yilgacha ta'lilda gender tenglikka erishish maqsadida qizlar uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish (stipendiyalar, yotoqxona joylari, xavfsiz transport) kabi choralar tavsiya etilgan. Xalqaro hamjamiyat, xususan, BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi rezolyutsiyalarida ayollarning oliy ta'lilda to'laqonli ishtirokiga to'sqinlik qiluvchi har qanday diskriminatsion amaliyat qoralanadi. CEDAW Konvensiyasi hamda Pekin harakatlar platformasi (1995) kabi hujjatlar qizlarning oliy ta'lilda o'qishlari, unda davom etishi va bitirishi oldidagi gender to'siqlarni olib tashlashga qaratilgan.

Talaba qizlarning reproduktiv huquqlari va salomatligi xalqaro normalarda alohida e'tiborga sazovor. CEDAWning 12-moddasi ayollarning sog'likni saqlash, xususan, reproduktiv salomatlik sohasida kamshitilmasligini ta'minlaydi – davlatlar ayollarga homiladorlik va tug'ish davrida tegishli tibbiy yordam ko'rsatishi, shuningdek, oilani rejashtirish bo'yicha axborot va vositalarga erkin ega bo'lishini kafolatlashi lozim. 1994-yilda qabul qilingan Qohira Harakat dasturi (Xalqaro aholi va taraqqiyot konferensiysi) reproduktiv huquqlar

tushunchasini xalqaro miqyosda mustahkamladi: unga ko'ra, har bir ayol o'z farzand ko'rish qobiliyati va tanasi ustidan erkin va mas'uliyatlari ravishda qaror qabul qilish huquqiga ega. Bu talaba yoshidagi qizlarga ham tegishli bo'lib, ular nikoh qurgunga qadar sog'gom reproduktiv hayot haqida ma'lumot olishga va sog'lik xizmatidan foydalanishga haqlidirlar, degan ma'noni anglatadi.

BMTning Aholishunoslik bo'yicha jamg'armasi (UNFPA) va Juhon sog'likni saqlash tashkiloti standartlariga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida yoshlar uchun reproduktiv salomatlik bo'yicha maxsus maslahat va xizmatlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Xalqaro me'yorlar, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 25-moddasi, har bir inson sog'ligini saqlash huquqiga egaligini e'tirof etadi. Shuningdek, qizlar uchun oylik gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyati, ginekologik ko'rik va maslahatlar, oila qurishni rejashtirish borasidagi ma'lumot va vositalarga ega bo'lishni ham o'z ichiga oladi. CEDAW Qo'mitasining 24-sonli umumiyyat tavsiyasi aynan yosh qizlarning reproduktiv salomatligi borasidagi ehtiyojlarini qondirishga chaqiradi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarini va turar joylarda yoshlarni atroficha jinsiy tarbiya bilan qamrab olish, kontrasepsiya haqida ilmiy asoslangan va ishonchli ma'lumot berish tavsiya etiladi.

Shu bilan bir qatorda, xalqaro konvensiya yoki deklaratsiya ko'rinishida bo'lmasa-da ayrim xalqaro tashkilotlarning ko'rsatma va standartlarini talabalar yotoqxonasiga xos qoidalarning shakllanganligini ko'rish mumkin. Talabalar uchun yotoqxonalar nafaqat yashash joyi, balki ularning ta'lim olish jarayonidagi ijtimoiy, ma'naviy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim muhit hisoblanadi. Xalqaro miqyosda talabalar turar joylarini boshqarish va ularda yashash sharoitlarini tartibga solish bo'yicha qator standartlar va huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi – ta'lim muassasalarida xavfsiz, qulay, inklyuziv va ijobjiy muhit yaratishdan iborat.

Quyidagilarning nima ekanini aniqlik bilan izohlab yozish kerak:

1. YUNESKOning "Ta'lim muassasalarining norma va standartlari" – kampus va yotoqxona binolarida xavfsizlik, yong'indan himoya, umumiyyat maydonlar va o'qish joylari bo'yicha texnik tavsiyalar<sup>12</sup>.

<sup>12</sup> Policy and Standards for Water, Sanitation & Hygiene (WaSH) in Schools 2018-2023 // <https://healtheducationresources.unesco.org/index.php/fr/library/documents/policy-and-standards-water-sanitation-hygiene-wash-schools-2018-2023>

<sup>10</sup> Бола хукуклари тўғрисида конвенция // <https://lex.uz/docs/2595913>

<sup>11</sup> Инсон хукуклари умумжоҳон декларацияси // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>

2. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti /YUNISEF “Maktablarda suv ta’minoti, sanitariya va gigiyena” (2018) bo‘yicha hujjati – ichimlik suvi, sanitariya va gigiyena bo‘yicha SDG ko‘rsatkichlariga mos minimal xizmatlar (masalan, yakka jinsli hojatxona, qo‘l yuvish nuqtalari)<sup>13</sup>.

3. BMT Habitat tashkilotining “Ijara uy-joy siyosati bo‘yicha yo‘riqnomasi” (2011) – ijara turda yashovchi yoshlar va talabalarni himoya qilish, shartnoma, xavfsizlik va subsidiya siyosatlari bo‘yicha amaliy tavsiya<sup>14</sup>.

4. Turar joy kodeksi (Buyuk Britaniya) – universitetlar litsenziyadan ozod bo‘lishi uchun yotoqxonalarda havfsizlik, texnik xizmat, talabajarachi munosabatlari, farovonlik kabi 7 ta bo‘lim bo‘yicha standartni bajarishi shart<sup>15</sup>.

5. Talabalarni turar joy bilan ta’minalash bo‘yicha milliy strategiya (Irlandiya, 2017 yil) – turar joy xarajatini subsidiyalash, student himoyasi bo‘yicha davlat dasturi<sup>16</sup>.

Jahon miqyosida talabalar turar joylari bilan bog‘liq eng nufuzli tashkilotlardan biri – ACUHO-I (Association of College and University Housing Officers – International). U mazkur sohada faoliyat yuritayotgan universitetlar va turar joylar xodimlari uchun etik tamoyillar, boshqaruv standartlari va professional yondashuvni belgilab beradi. ACUHO-I tomonidan ishlab chiqilgan standartlarga ko‘ra, har bir talabaga xavfsiz va gigiyena talablariga mos keluvchi muhit yaratilishi shart. Yotoqxonalarda yong‘inga qarshi tizimlar, birinchi yordam vositalari, tozalik va sanitariya sharoitlari, psixodemotsional holatni qo‘llab-quvvatlashga doir mexanizmlar bo‘lishi lozim. Shuningdek, mazkur standartlar barcha talabaga irqi, jinsi, dini yoki imkoniyatidan qat’i nazar teng sharoitda yashash imkoniyatini kafolatlashini ta’kidlaydi.

AQShdagi CAS (Council for the Advancement of Standards in Higher Education) tashkiloti ham talabalar hayotini, jumladan, turar joylar faoliyatini

<sup>13</sup> WASH in schools // <https://data.unicef.org/topic/water-and-sanitation/wash-in-schools>

<sup>14</sup> Policy Guide to Rental Housing in Developing Countries // [https://unhabitat.org/policy-guide-to-rental-housing-in-developing-countries?utm\\_source](https://unhabitat.org/policy-guide-to-rental-housing-in-developing-countries?utm_source)

<sup>15</sup> Accommodation code of practice // <https://www.universitiesuk.ac.uk/topics/students/student-support/accommodation-code-practice>

<sup>16</sup> STUDENT HOUSING REPORT National Student Housing Survey 2017 // <https://usi.ie/wp-content/uploads/2017/08/Final-Report.pdf>, National Student Accommodation Strategy // <https://www.gov.ie/ga/an-roinn-oideachais/preaseisiu/international-student-accommodation-strategy-4/>

standartlashtirish bilan shug‘ullanadi. CAS standartlariga ko‘ra, talabalar yotoqxonalari nafaqat jismoniy sharoitlar bilan ta’minalishi, balki o‘quv va shaxsiy rivojlanishga xizmat qiluvchi muhit sifatida ham tashkil etilishi kerak. Yotoqxonalarda ijtimoiy hayotni faollashtirish, ma’naviy-axloqiy tadbirlar, jamoaviy ishlarni rag‘batlantirish, mustaqil hayotga tayyorgarlik kabi masalalarga alohida e’tibor beriladi.

Talabalar turar joylari sohasida rivojlangan davlatlardan biri bo‘lgan Buyuk Britaniyada ham ushbu masalaga oid qator huquqiy hujjatlar mavjud. “Housing Act 2004” qonuniga ko‘ra, talabalar turar joylari sanitariya, xavfsizlik va ta’mirga oid minimal standartlarga mos bo‘lishi shart. Shuningdek, “National Code for Assured Accommodation” kabi qonunosti hujjatlari talabalarning turar joydagи huquq va majburiyatlarini aniq belgilab, turar joy provayderlari uchun huquqiy va etik standartlarni joriy etadi. Bu hujjatlar ijara shartlari, xavfsizlik, shoshilinch yordam, murojaat qilish mexanizmlari va boshqa xizmatlar sifati bo‘yicha aniq mezonlar qo‘yadi.

Shu bilan birga, Xitoydagi yetakchi universitetlar: South China University of Technology, Zhejiang University va Guangdong University of Foreign Studies talabalar uchun ishlab chiqqan ichki qoidalariда ham xalqaro standartlarga yaqin yondashuvlar mavjud. Masalan, talabalar yotoqxonalarida gigiyena qoidalari, tinchlik va jamoaviy munosabat qoidalari, millatlararo totuvlik, mehmon qabul qilish tartibi va avariya holatlaridagi harakatlar aniq tartibga solingen. Xususan, xalqaro talabalar uchun pasport, viza va yashash joyini ro‘yxatdan o‘tkazish, turar joydan chiqish va boshqa tashkiliy masalalar bo‘yicha yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Talabalar turar joylari uchun bino qurilishi va muhandislik yechimlarida ham ekologik barqarorlik va energiya samaradorligi masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Shu maqsadda xalqaro darajada International Green Construction Code (IgCC) va BREEAM (Building Research Establishment Environmental Assessment Method) kabi qurilish standartlari qo‘llaniladi. Ularning asosiy vazifasi – qurilish jarayonida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya tejovchanligi, chiqindilarni kamaytirish va yashash uchun ekologik xavfsiz muhit yaratish.

**Yakuniy qism.** Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, xalqaro huquqiy hujjatlarda talabalar, ayniqsa, qizlar uchun turar joylarda xavfsiz va ma’naviy muhitni ta’minalashga oid aniq normalar mavjud.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hamda ko‘plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan qator hujjatlarda ta’lim oluvchi qizlarni har qanday zo‘ravonlik, kamsitish, salbiy munosabatlardan himoyalash, ularning ijtimoiy va shaxsiy barqarorligini ta’minlash kabi maqsadlar belgilangan. O‘zbekistonda mazkur sohada muayyan huquqiy asoslar mayjud bo‘lsada, amaliyatda talabalar yotoqxonalaridagi shart-sharoitlarni, ayniqsa, qizlar uchun xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha qo‘srimcha

chora-tadbirlar va institusional yondashuvlarga ehtiyoj bor. Qizlar uchun yotoqxonalarda jinsiy va ruhiy zo‘ravonlikning oldini olish, huquqiy himoyani kuchaytirish, psixologik xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, shaffof ichki nazorat tizimini joriy qilish kabi choralar bu sohani yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro hujjatlarda belgilangan prinsiplar milliy siyosat va amaliyatda to‘laqonli ifodasini topishi uchun qonunchilikni muvofiqlashtirish, ta’lim muassasalaridagi ichki tartib-qoidalarni qayta ko‘rib chiqish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
2. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women // <https://www.right-to-education.org/resource/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women>
3. Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida Konvensiya // <https://lex.uz/ru/docs/2685528>
4. What is school violence? // <https://www.unesco.org/en/health-education/safe-learning-environments>
5. Why does gender matter when looking at school violence? // <https://www.unesco.org/en/health-education/safe-learning-environments>
6. Общая рекомендация №19 насилие в отношении женщин // [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/cedaw\\_handbook/cedaw\\_rec19.pdf](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw_handbook/cedaw_rec19.pdf)
7. THE 17 GOALS//<https://sdgs.un.org/goals>
8. Fuqaroviylar to‘g‘risida xalqaro PAKT // <https://lex.uz/docs/2640479>
9. Bola huquqlari to‘g‘risida Konvensiya // <https://lex.uz/docs/2595913>
10. Инсон хукуклари умумжахон декларацияси // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
11. Policy and Standards for Water, Sanitation & Hygiene (WaSH) in Schools 2018-2023//<https://healtheducationresources.unesco.org/index.php/fr/library/documents/policy-and-standards-water-sanitation-hygiene-wash-schools-2018-2023>
12. WASH in schools // <https://data.unicef.org/topic/water-and-sanitation/wash-in-schools>
13. Policy Guide to Rental Housing in Developing Countries // [https://unhabitat.org/policy-guide-to-rental-housing-in-developing-countries?utm\\_source](https://unhabitat.org/policy-guide-to-rental-housing-in-developing-countries?utm_source)
14. Accommodation code of practice // <https://www.universitiesuk.ac.uk/topics/students/student-support/accommodation-code-practice>
15. STUDENT HOUSING REPORT National Student Housing Survey 2017 // <https://usi.ie/wp-content/uploads/2017/08/Final-Report.pdf7>, National Student Accommodation Strategy // <https://www.gov.ie/ga/an-roinn-oideachais/preaseisiusinti/national-student-accommodation-strategy-4/>